

**O'ZBEK VA INGLIZ TILIDA OYLAVIY MUSOSABATLARNI ZOONYM FRAZEOLGIK
BIRLIKLARI ORQALI IFODALASH XUSUSIYATLARI**

Genjekaraeva Zulfiya Adilxanovna

Qoroqolpoq Davlat Universiteti 2 kurs magistr talabasi

Annotatsiya: *Maqolada zoosemik nominatsiyalar bilan sifatdosh frazeologik birliklarning semantik xususiyatlari va tasnifi ko'rib chiqiladi. Zoosemizmli frazeologik birliklarning sub'ektiv-baho konnotatsiyasi, metaforik tabiati ko'p jihatdan ularda bevosita ifodalangan antropotsentrizm bilan bog'liq. Tahlil qilinayotgan frazeologik birliklarning tematik tasnifi antropotsentrik yo'naltirilgan sifatdosh frazeologik birliklarning "zoonim" komponentli guruhlarini ajratib ko'rsatish imkonini beradi.*

Kalit sozlar: *zoonim, frazeologik birliklar, oilaviy munosabatlar.*

Har qanday tildagi frazeologik tizim o'ziga xos milliy belgilarni qamrab oladi. Bunda ikki yoki undan ortiq tillardagi o'zaro farqlar ulardagi qiyosiy tahlillar asosidagina aniqlanishi mumkin. O'z - o'zidan ma'lum bo'ladiki, ular orasida farq qancha katta bo'lsa, qiyosiy tahlil qilinadigan tillarning genetik belgilari ham shunchalik uzoq bo'ladi. Bu jarayon aksincha ham bo'lishi mumkin, ya'ni tillar (qardosh tillar) qancha bir - biriga yaqin bo'lsa, ular orasidagi o'xshashliklar ham ko'proq kuzatiladi.

Har bir millat o'ziga xos madaniyatga ega va bu jihat uning lug'at fondiga ta'sir etmay qo'ymaydi. Bu borada Yu.E. Bregelning fikriga qo'shilmay ilojimiz yo'q: "Millatning aforistik folklori o'ziga xos xarakterga ega, eng avvalo, u o'sha elatning - nazari, tarixiy taraqqiyot yo'li, dunyoqarashi, ijtimoiy va poetik jihatlari bilan bog'liq".

Biz bu bilan boshqa tillarda mavjud bo'lgan mavzular ingliz tilida umuman yo'q, deya olmaymiz. Zero iboralar xalq tajribasi, uning bosib o'tgan yo'li xulosalarini o'zida mujassam etadi. Shunday ekan, ko'p xalq og'zaki ijodi namunalarida bir xillik yoki o'xshashlikni kuzatish mumkin. Lekin yuqorida aytib o'tilganidek, xalq iboralari ham o'ziga xosliklardan holi emas. Bunga aniqlik kiritish uchun ingliz va o'zbek iboralari mavjud zoonim komponentlarini semantik jihatdan guruhlariga bo'lib o'rganishning o'zi ko'p narsaga oydinlik kiritdi. Semantik jihatdan ularni quyidagi guruhlariga bo'lish mumkin. Masalan:

- I. Vatanparvarlikka tuyg'usini ifodalovchi boralar;
 - II. Falsafiy qarashlarni yorituvchi iboralar;
 - III. Bilim, fan va kasbni anglatuvchi iboralar ;
 - IV. Oilaviy munosabatlar;
 - V. Ijtimoiy munosabatlar;
 - VI. Mehnatga bo'lgan munosabatlar;
 - VII. Bo zor va pul munosabatlari va boshqalar
- Oilaviy munosabatlar kishi hayotining tayanch vositasini tashkil etadi.

Masalan:

The black crow thinks her own birds white;
Every mother thinks her own gosling a swan;
A crab walks, so walks his children;
If you become a dog, turn into the dog of a wealthy family;
A dog shows affection even to a poor family;
If you turn into a dog, be sure to choose a rich family.

Ingliz tili iboralarida oila tushunchasi ilohiy hisoblanib, unga bo'lgan javobgarlik va sadoqat belgisi sifatida ular ko'pgina holatlarda it obraziga murojaat qilishadi. O'zbek tiliga qarama – qarshi o'laroq ularda farzand va ota – ona o'rtasidagi munosabatlar bilan chegaralanib qolsa, bizda u o'zining keng tarmoqliligi bilan ajralib turadi.

Ingliz tili iboralarida oilaga bo'lgan iliq munosabatga kamdan – kam duch kelishimiz mumkin. Biz bunday qarashni ularning kam sonli (zoonim) iboralaridan ham ko'rishimiz mumkin. Farzand, oila ularning ko'pchiliklari nazdida, iqtisodiy, moliyaviy tomonidan ta'minlanishi zarur bo'lgan kishilari hisoblanadi. Balkim, bu ularning o'ta yuksak “men”iga egaligidan dalolat berishi mumkin. Lekin biz ularning oilaga g'amxo'rliklarini ham inkor eta olmaymiz..

Masalan, charity begins at home; Marriages are made in heaven. Bu iboralar kishilar birinchi navbatda oilalariga g'amxo'rlik qilishlari kerakligi uqtiriladi.

O'zbek millati oilaga, oiladagi o'zaro hurmatga alohida yondashadilar. Shu kabi, maqollarda er va xotin, bolalar, ularning tarbiyasi, qaynona va kelin munosabatlari yorqan aks etgan. Shu sababdan, biz oilaviy munosabatlarni azaldan qaynona – kelin, yaqin qarindoshlar, oilaning boshqako'pgina a'zolari birgalikda umrguzaronlik qilganliklarini hisobga olgan holda bir necha guruhlariga bo'lib o'rganamiz.

1. Er va xotin, ularning o'zaro munosabati:

Er va xotin bir – birining yarmi, ular biri – birlarini to'ldirib turadilar:

Er – xotin – qo'sh xo'kiz;

Er – xotin – qo'sh qanot;

Er – xotinning urushi – jo'ja – xo'roz urush.

2. Xotin va uning oiladagi o'rni:

Beva xotinga Buxorodan it hurar;

Biyaning yugurugi yaxshi xotinning – epchili;

Ikki sigir olganning ayroni bor, ikki xotin olganning vayroni;

Ikki xotinlikning qulog'i tinmas, eshak minganning – oyog'i;

Yuguruk otga yol bitmas, toq yigitga mol bitmas;

3. Bolalar va ularning ota – onalar bilan munosabati:

Maqollarning aksariyat qismi bolalarga bag'ishlanganini kuzatish mumkin.

Masalan:

Xotini qiz tug'di deb o'pkalanma, sherning erkak urg'ochisi barobar;

Quyvon bolasini botirim der, it bolasini qoplonim;

Qulunli biyabo'tasiz tuyadan yaxshi;
Qush nima topsa bolasining og'ziga tiqar;
Qo'zi mo'rab o'sar bola yig'lab;
Qo'y qo'zichoqbilan go'zal, xotin chaqalog'i bilan;
Qo'ng'iz bolasini oppog'im der, kirpi bolasini yumshog'im;
Toy ot bo'lsa ot tinar, o'g'il er bo'lsa -ota.

4. Yaqin qarindoshlar, qaynona – kelin munosabatlari:

Ayniqsa, qaynona – kelin munosabati iboralarda yorqin namoyon bo'ladi.

Masalan:

Itning yovi – devona, kelinning yovi qaynona;
Qaynonaga tosh otsang tosh olasan, qaynonaga osh bersang osh olasan;
Qarindosh – urug'chilik munosabatlari:
Begona bilan quyon ovlama,ovlasang ham,yoningga boylama;
Begonaning oti o'zguncha, ovuldoshingning toyi o'zsin;
Yetti bojani bir bo'ri yer;
Yot yoqadam olur,it etakdan;
It qilig'ini egasi bilar,jiyan qilig'ini tog'asi;
Oziqli ot horimas, qarindoshli qarimas;
Otadoshim,otga min,otasi boshqa otdan tush.

Ko'rinib turibdiki,bizning xalqimiz orasida oilaga bo'lgan qarash ko'p tarmoqli hisoblanadi.Bu o'zbek xalqining qadimdan urug'-aymoqchilik munosabatlarining taraqqiy etganligidan dalolat beradi.

Har qanday tildagi frazeologik tizim o'ziga xos milliy belgilarni qamrab oladi.Bunda ikki yoki undan ortiq tillardagi o'zaro farqlar ulardagi qiyosiy tahlillar asosidagina aniqlanishi mumkin. O'z – o'zidan ma'lum bo'ladiki, ular orasida farq qancha chuqur bo'lsa,qiyosiy tahlil qilinadigan tillarning irsiy belgilari ham shunchalik uzoq bo'ladi.Bu jarayon aksincha ham bo'lishi mumkin, ya'ni tillar (qardosh tillar) qancha bir – biriga yaqin bo'lsa, ular orasidagi o'xshashliklar ham ko'proq kuzatiladi.Har bir millat o'ziga xos madaniyatga ega va bu jihat uning lug'at fondiga ta'sir etmay qo'ymaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Collins Cobuild Advanced English Dictionary Learner.-London:Collins Cobuild.2008.-1712p.
2. Cambridge International dictionary of Idioms.- Cambridge University press , 2001-587p
3. Rahmtullaev SH. Uzbek tilining frazeologik lugati.-Tashkent;1992-380p
4. А.Кунин : англо-русский фразеологический словарь. Кунин А.В – Москва: “Русский язык” 1984-942с

5. Кунин А.В Курс фразеологий современного английского языка. – Думма: Феникс,2005. 408 стр.

6. Брегель. Ю.Э. Восточные рукописи в Казани//письменные памятники востока/ историко- филологические исследования. Наука ГРВЛ 1972. 355стр.